

**BUYUK SHARQ ALLOMALARIMIZNING QARASHLARIDA BOLA  
SHAXSINING SHAKILLANISHIDA TA'LIM TATBIYANING O'RNI.**

**Maxadjonova Minavvarxon**

*Qo'qon Davlat Universiteti Sanatshunoslik va sport fakulteti Musiqa talim yonalishi  
02/24 guruh talabasi.*

**Annotatsiya:** *Maqolada bola shaxsining shakllanish jarayonida ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi va sharq allomalaridan Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiylarning fikrlari keng yoritilgan. Shaxs rivojlanishida oilaning, maktabning va jamiyatning ta'siri, ta'lim va tarbiya birligining ahamiyati ilmiy asoslangan. Ta'lim bolaning intellektual salohiyatini, tarbiya esa uning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishi izohlangan. Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi muhim omil ekanligi ta'kidlangan*

**Kalit so'zlar:** *bola, shaxs, ta'lim, tarbiya, ma'naviy tarbiya, intellekt, pedagogika.*

**Abstract:** *The article extensively discusses the interrelation of education and upbringing in the process of forming a child's personality and the ideas of the Eastern scholars Abu Ali ibn Sina and Abu Nasr al-Farabi. The influence of family, school and society on personality development, the importance of the unity of education and upbringing are scientifically based. It is explained that education forms the intellectual potential of a child, and upbringing forms his spiritual and moral image. It is emphasized that the harmony of education and upbringing is an important factor for the comprehensive development of a child's personality.*

**Keywords:** *child, personality, education, upbringing, spiritual upbringing, intellect, pedagogy.*

**Аннотация:** *В статье подробно рассматривается взаимосвязь образования и воспитания в процессе формирования личности ребёнка, а также идеи восточных учёных Абу Али ибн Сины и Абу Насра аль-Фараби. Научно обосновано влияние семьи, школы и общества на развитие личности, важность единства образования и воспитания. Показано, что образование формирует интеллектуальный потенциал ребёнка, а воспитание – его духовно-нравственный облик. Подчеркивается, что гармония образования и воспитания является важным фактором всестороннего развития личности ребёнка.*

**Ключевые слова:** *ребёнок, личность, образование, воспитание, духовное воспитание, интеллект, педагогика.*

1. Kirish. Ta'lim va tarbiyaning mohiyati. Ta'lim – bolaning bilim, ko'nikma va malaka egallash jarayoni bo'lib, u aqliy va intellektual rivojlanishni ta'minlaydi. Tarbiya – bolaning axloqiy, ma'naviy, estetik va ijtimoiy jihatdan shakllanish jarayoni bo'lib,

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

shaxsning jamiyatga moslashuvini ta'minlaydi. Bu ikki tushuncha bir-biridan ajralmasdir. Forobiyning qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ta'lim – insonni bilimli qiladi, Tarbiya – insonni komil inson darajasiga ko'taradi. Ya'ni, Forobiyning mashhur so'zlari bilan aytganda: "Ta'lim – so'z va o'rgatish bilan, tarbiya – amaliy ish va odatlar bilan amalga oshadi." deydi. Allomalarimizdan yana biri Abu Ali ibn Sino ham bolaning o'smirligidan uning manaviy olami, ruhiyati, tarbiyasiga, uning kelajak uchun foydali yetuk inson bo'lishini xoxlar ekan, avvalo bolaning talim tarbiya nazariyasiga alihida e'tibor beradi. Uning nazarida "onglilik inson baxtining asosidir. Har bir inson kuchli, aqlli, jismoniy jihatdan yetuk bo'lmog'i lozim. Agarda kishida bu hislatlar bo'lmasa tom ma'noda inson jamiyat a'zosi bo'la olmaydi" deydi. Pedagogika fanida ta'lim va tarbiya shaxs rivojlanishining asosiy vositalari sifatida qaraladi.

2. Asosiy qism Forobiyning ta'lim tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari alohida o'rin tutadi. Forobiyning ta'kidlashicha, tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni bilimli bo'lishga, to'g'rilik va haqiqatni sevish singari fazilatlamini egallashga intilmog'i lozim. Shunga ko'ra olim o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim- tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o'rinni egallashini qayd qiladi. Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aql-idrok ongiga va axloqiga e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim- tarbiya uning fikricha aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim. Ta'lim tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat, odatiy malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi. Forobiy tarbiya berish usullari haqida shunday yozadi: birinchi usul: qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi va malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasbga intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi usul: majbur etish yo'lidir. Bu usul majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashdir. Farobiy o'z qarashlarida insonning aqliy va axloqiy jihatlariga alohida e'tiborini qaratadi va u "Fozil odamlar shahri" asarida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli inson bo'la olishini ta'kidlaydi. Bular quyidagilar: "Birinchi bunday odamning barcha a'zolari mukammal taraqqiy etgan, sog'lom bo'lish lozim; ikkinchidan, tez fahm so'zlovchining maqsadini tez payqay oladigan bo'lsin; uchinchi, xotirasi juda kuchli va mustahkam bo'lsin; to'rtinchidan, zehni tez va o'tkir bo'lsin; beshinchidan, nutqi ravon, fikri teran, mulohazalarini yorqin bayon eta olsin; oltinchidan, bilish va o'rganishga ishtiyoqi baland bo'lib, bilimlarini charchashni sezmasdan o'zlashtira olsin; yettinchi, nafsini tiya oladigan, qimor o'yinlaridan jirkanadigan bo'lsin; sakkizinchi haqiqatni sevadigan bo'lsin; to'qqizinchi g'ururli va vijdonli bo'lsin, oliyjanob ishlarga intilsin; o'ninchidan, mol-dunyo yig'ishga berilmasin; o'n birinchidan, adolatli bo'lsin, odamlarni adolatga targ'ib etadigan bo'lsin; o'n ikkinchi, adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur debbilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin" Keyinchalik esa o'zgaradi, ya'ni ijtimoiylashuv jarayonida odamlar ming yillardn beri amal qilib kelayotgan qadriyatlar va me'yorlarni qabul qiladilar. O'zining " Baxt-saodatga erishuv haqida"asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning aytishicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganishi lozim. Undan so'ng, umumanjonli tabiat ya'ni o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi. Forobiy inson kamolotga ta'lim - tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi. Buyuk allomalarimizdan yana biri Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya yotadi. Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zaraurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolani maktabda jamoa bo'lib o'qishini foydasi quyidagicha ifodalangan: Agar o'quvchi birga o'qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi. O'zaro suhbatda o'uvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar. Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar. Ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi. Bilim va axloq uyg'unligi – bola maktabda olgan bilimlarini to'g'ri qo'llashi uchun unga tarbiya yo'l boshchi bo'ladi. Oila va maktab hamkorligi – oila bolaning birlamchi tarbiyachisi bo'lsa, maktab uning bilim va dunyoqarashini shakllantiradi. Jamiyat ta'siri – bolani shakllantirishda ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, internet ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Bola shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Oila – bolaning ilk tarbiyachisi va axloqiy qiyofasini belgilovchi muhit. Ta'lim muassasalari – bilim berish bilan birga, tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshiradi. Jamiyat va muhit – do'stlar, qo'shnilar, ommaviy madaniyat bolaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi shaxsi – bilim beruvchi bilan birga, u bolaga ideal sifatida namuna bo'ladi. Zamonaviy yondashuvlar. Bugungi kunda bola shaxsini shakllantirishda: interfaol metodlar (debat, aqliy hujum, klaster); axborot-kommunikatsiya texnologiyalari; loyiha asosida o'qitish; hamkorlikda ta'lim kabi usullardan keng foydalanilmoqda. Bu usullar nafaqat bilimni oshiradi, balki bolada mas'uliyat, tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. 3. Xulosa. Abu Nasir Farobiy va Abu Ali Ibn Sinoning qarashlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiya bir-

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

biridan ajralmas tushunchalardir. Farobiy ta'limni vosita, tarbiyani esa maqsad deb bilgan. Ibn Sino esa bolani bilim va odobni uyg'un tarzda o'rganishga yo'naltirishni tavsiya etgan. Zamonaviy talim-tarbiyada allomalarimizning fikrlariga alohida e'tibor qaratilib ta'lim-tarbiya jarayonida Respublikamizda va jahonda keng qullaniladi. Bola shaxsining shakllanishi – murakkab va uzluksiz jarayon. Unda ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas bo'lib, ularning uyg'unligi bola shaxsini har tomonlama rivojlantiradi. Ta'limsiz tarbiya biryoqlama, tarbiyasiz ta'lim esa samarasizdir. Shunday ekan, oila, maktab va jamiyatning hamkorligi asosida ta'lim va tarbiya jarayonini uyg'unlashtirish barkamol shaxsni tarbiyalashning eng to'g'ri yo'lidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida.- Toshkent, Yozuvchi,2001.
3. T.B.Norimbetov., K.M.Axmedov.,N.T.Norimbetova. Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim ta'rbiya jarayonida aqliy tarbiya, odob - axloq va shaxs kamolati haqidagi fikrlari. Ilm-fan xabarnomasi jur.№2 2025y.52-55 betlar.
4. Abu Ali ibn Sino . Axloq ilmi haqida risola. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1999.
5. www.ziyouz.com – Sharq mutafakkirlari asarlari kutubxonasi.